<i>Choriqulov Rustamjon Ibodullo o'g'li</i> MODERN VIEW OF THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN MASTERING INDEPENDENT LEARNING SKILLS IN STUDENTS .....	412-416
<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i> INNOVATION PROCESSES IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS .....	417-423
<i>Burkhiev Olimjon Boboevich</i> SYSTEM OF APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGY AS A MEANS OF IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN A UNIVERSITY .....	424-429

**Received:** 05 May 2024  
**Accepted:** 10 May 2024  
**Published:** 25 May 2024

*Article / Original Paper*

## **THE RELIGIONS OF CENTRAL ASIA**

**Razzakova Shahsanam**

The State of Uzbekistan University of World Languages, Intern teacher of the Department of Social Sciences

**Abstract.** This article discusses the introduction of religions to Central Asia, their formation, the lifestyle of the population, culture, economy, and historical development, as well as the specific characteristics of each religion.

**Keywords:** historical aspects of the sources of religions and beliefs of Central Asia. Early forms of religion, Islām, Zoroastrianism, Hinduism, Judaism, shamanism, animism, totemism, fetishism.

## **MARKAZIY OSIYO DINLARI**

**Razzoqova Shohsanam**

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrası stajyor o'qituvchisi

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Markaziy osiyoga dinlarni kirib kelishi, shakllanishi, ularni aholini turmush tarzi, madaniyati, iqtisodiyoti, tarixiy rivojlanishi qolaversa, har bir dinning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo dinlari va e'tiqodlari manbalarining tarixiy jihatlari. Dinning ilk shakllari, islom, zardushtiylik, hinduizm, iudaizm, shomonlik, animizm, totemizm, fetichizm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI3Y2024N20>

O'rta Osiyo mintaqasidagi madaniy yodgorliklar bu hududda xilma-xil diniy tasavvurlar va e'tiqodlarning rivojlanganligi haqida guvohlik beradi. Bu holat asrlar davomida mahalliy aholining dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishi, xalqlarning ko'chib yurishlari, boshqa diniy tizimlarning kirib kelishi natijasida vujudga kelgan.

Dastlabki diniy tasavvurlarning paydo bo'lish jarayonlari petrogliflar, arxeologik topilmalar, yozma va og'zaki rivoyatlar orqali bevosita kuzatiladi. Masalan, tog' echkisi va tog' qo'yi tasvirlari O'rta Osiyo xalqlari diniy tajribasining asosidir. Tog' echkisiga sig'inish hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Teshiktosh mavzesidan topilgan neandertal bola murda-skeleti tog' echkisi shoxi bilan yonma-yon qo'yilgan. Hozirda ham Tojikiston va Qirg'izistondagi masjidlar tog' echkisi shoxlari bilan bezatiladi.

Qo'y-toshlarga sajda qilish qozoq, qirg'iz, tojik va turkman xalqlarining ijtimoiy hayoti va san'atiga chuqur singgan, chunki chorvadorlar uchun qo'y va echkichilik asosiy tirikchilik manbai bo'lgan. Chorvadorlar tog' echkisining go'shtini mo'jizakor kuchga ega deb hisoblaydilar.

Qo'chqorning muqaddas ahamiyatga egaligi ham keng tarqalgan tasavvur. Masalan, Xorazmda aholining ko'pchilik qismi ko'z tegishdan saqlanish maqsadida hovlilarida qo'chqor



boqqanlar, chunki ularning tasavvuricha, yomon nazar qo'chqorning shoxiga tegib o'z kuchini yo'qotadi.

Bulardan anglashiladiki, O'rta Osiyo xalqlari diniy tasavvurlarining qadimiy ildizlari hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan va ularning madaniy merosida muhim o'rin tutadi.

Din unga e'tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o'zining ma'lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko'ra turli guruhlariga bo'linadi. Bu guruhlar son jihatdan qancha bo'lishidan yoki nazariy jihatdan qanchalik yetuk bo'lishidan qat'i nazar, ularni mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Chunki har qanday tasnif ma'lum bir jihatga e'tibor berib, boshqa qirralarni qamrab ololmaydi. Bugungi kunda din tipologiyasini tarixiy-geografik, etnik va e'tiqod qiluvchilarining soniga ko'ra, tasniflashimiz mumkin.[1]

Bugungi kunda dinlarning shakllanishi tarixiga oid ikki xil: teologik va materialistik qarashlar mavjud. Teologik (ilohiy, diniy) yondashuvga ko'ra, turli buyumlarga sig'inish va ko'pxudolik, jumladan, animizm, totemizm, fetishizm va shomonlik yakkaxudolikdan keyin yuzaga kelgan. Jumladan, yahudiylilik, xristianlik va islom dinlari ga ko'ra, Xudo ilk inson — Odamni yaratib, unga o'zini tanitgan va Odam avlodlarini o'ziga sig'inishga chaqirgan. Vaqt o'tishi bilan insonlar sof ta'limotdan uzoqlashib, turli butlarga sig'ina boshlaganlar. Dinlarning kelib chiqishi haqidagi ikkinchi qarash fanda materialistik yondashuv deb nomlanadi. Mazkur qarashlarning paydo bo'lishi antik davrga borib taqaladi. Ilk bor qadimgi yunon faylasuflari bu haqdagi o'z qarashlarini bayon etganlar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda fanda dinlar shakllanishining teologik yondashuviga biroz to'xtalib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

**Animizm.** Qadimgi odamlar atrofdagi dunyoda hayvonlar, o'simliklar, tabiat hodisalari kabi har narsaning joni, ya'ni ruhi mavjud deb tasavvur qilganlar. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan afsonaviy ko'rinishga ega bo'lgan yer, olov, o'rmon, suv, tog' va uyning odamsimon "ruhlari" ham shundan kelib chiqqan deyiladi.

**Totemizm.** Ibtidoiy jamoalar qavm — qarindoshlik asosiga qurilgan. Odam ijtimoiy munosabatlarning ushbu ko'rinishini tashqi muhitga – tabiatga ham ko'chirgan. Urug'ning jonivorlar va o'simliklar olami bilan aloqasini ular bilan qondoshlik alomati deb tushunilgan.

**Fetishizm.** Zamonaviy dinlarda fetishizm tabarruk buyumlarni tavof qilish tarzida, jumladan, xristianlarda — xoch, ikonalar, mayitga sig'inish, buddizmda –tabarruk o'g'ir yoki hovoncha tarzida saqlanib qolgan. Irim-sirimga ishonadigan odamlar orasida tumor baxt keltiradi, ko'zmunchoq esa yomon ko'zdan asraydi, degan ishonch mavjud bo'lgan. Taqa, tumor, bo'yin taqinchog'i (kulon) kabi narsalar zamonaviy fetishlarga misol bo'ladi.

**Shamanizm** (shomonlik). Boshqa millatlarda bo'lgani singari, Markaziy Osiyo xalqlarida ham shamanizm turli ko'rinishlarda kuzatiladi. Folbinlik, rom ochish, issiq — sovuq qilish, ilgirlik kabilarni shamanizm belgilari sifatida keltiriladi. Markaziy Osiyo xalqlari orasida, asosan, quyidagi jonzotlar va o'simliklar muqaddaslashtirilgan:

- Bo'ri. Qadimgi turk afsonalariga qaraganda, Ashina qabilasidan bo'lgan yosh go'dakni bo'ri emizib katta qilgan.
- Ot. Otni ulug'lash turkiy xalqlar orasida qadimdan mavjud bo'lgan.
- Qushlar. Rivoyatlarga ko'ra, o'zlarini O'g'izxon avlodlari deb hisoblagan turkiy o'g'izlar bobolar timsolini yomonliklardan asrovchi qushlarda ko'rishgan.
- Daraxtlar. Markaziy Osiyoda chinor va sarv daraxtlari (archa) qadimdan muqaddas kuchga ega obyekt sifatida e'zozlangan.[2]

**Tangrichilik.** Qadimgi turklar dini asosini Tangriga (Samo) va Zaminga (Yer-Suv) sig'inish tashkil etadi. Bunda Tangriga sig'inishga asosiy e'tibor berilgan. Tangrining xohishi bilan xoqonlar elni idora qilgan, zafar quchgan yoki mag'lub bo'lgan. Undan keyingi o'rinni oila va bolalar himoyachisi ma'buda Umay egallagan. Shuningdek, turkiy tillar so'zlashuvchi qabilalar orasida muqaddas tog'lar va g'orlarga ziyorat qilish muhim o'rin tutgan. Turkiy asotirlarga ko'ra, Ona bo'ri turklar ajdodini g'orda tuqqan, shu sababli buyuk xoqon bir yilda bir marotaba tog'dagi g'orlarga kelib, qurbonlik qilgan.

Turkiy xalqlar tasavvurlarida yer-suv, o'rmon va tog'larni ko'pdan-ko'p arvohtar egallab turadi, ularga vaqti-vaqti bilan qurbonliklar kerak bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, o'lgan kishining ruhi yer osti saltanatiga ko'chib o'tadi va uni o'lim xudosi va yer osti hukmdori Erklig boshqaradi. Yozma manbalarda olovning muqaddasligi, olov bilan poklanish, Yada toshi vositasida yomg'ir yog'dira oladigan afsungarlar haqida ma'lumotlar mavjud.

Qadimgi turkiylar e'tiqodiga ko'ra, Tangri bir qator ko'makchi ma'budlarni yaratgan. Ushbu panteon Umay, Erlik, Yer, Suv, Olov, Quyosh, Oy, Yulduzlar, Havo, Bulut, Shamol, To'fon, Momoqaldiraq, Chaqmoq, Yomg'ir, Kamalak ma'budlaridan iborat bo'lgan. Tangri Yer va boshqa ruhlar bilan Yer olami ishlarini hal qilib, barcha jonzotlarning umrini belgilagan. Umay "hayot onasi" deb e'zozlangan, Erlik o'lim sababchisi bo'lib, uning makoni Yerosti olami hisoblangan. Olam 3 qavatdan iborat: yuqori olamning hukmdori Tangri, o'rta olamni Yer-Suv, quyi olamni Erlik boshqargan.

Keyinchalik O'rta Osiyo aholisi orasida eski diniy tasavvurlar bilan bir qatorda buddizm, yahudiylik, xristianlik, manixeizm va islom diniy tizimlari ham tarqala boshladi.

**Zardushtiylik.** Ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib borishi bilan diniy qarashlar ham o'zgara bordi. Diniy afsonalar mazmuni, diniy-e'tiqod amaliyoti ham o'zgardi. Miloddan avvalgi II-I ming yilliklarda paydo bo'lgan din — zardushtiylik — o'tga sig'inish, Markaziy Osiyoda eng keng tarqalgan diniy tizimlardan biri edi. Zardushtiylik dini asosida foniy dunyoni yaratuvchi xudoning yagonaligi g'oyasi yotadi. U o'zining haqiqatini yetqazish uchun odamlar orasidan unga samimiy e'tiqod qilgan Zardushtni tanladi. Zardusht-Mazda Yasna dini payg'ambarining nomi. Zardushtiylik bu diniy ta'limotning shartli nomi bo'lib, birinchi targ'ibotchisi nomi bilan atalgan. O'tmishda Zardushtning va "Avesto" ning vatani qayerda bo'lganligi to'g'risida bahs-munozaralar bo'lib ikki xil fikr ilgari surilgan. Birinchi fikr: "G'arb nazariyasi" bo'lib, bu nazariya tarafdorlari hozirgi Eron hududida joylashgan Media Zardusht vatani, Zardushtiylik dini ana shu yerda yuzaga kelgan va boshqa o'lka xalqlari o'rtasida tarqalgan degan fikrni ilgari surib kelmoqdalar.

Ikkinchi fikr: "Sharq nazariyasi" deb yuritilib, bu nazariya tarafdorlari Zardushtning vatani va zardushtiylik dinining yuzaga kelgan, ilk tarqalgan joyi qadim Xorazm bo'lgan deb e'tirof etadilar. Ko'p yillik bahs-munozaralardan so'ng pirovardida o'ttizdan ortiq xorijiy avestoshunos olimlar va o'zimizning tadqiqotchi olimlarimiz Zardushtning va "Avesto" ning vatani O'zbekiston, qadim Xorazm bo'lgan degan qat'iy bir fikrga kelganlar. Tadqiqotchi olimlarning bunday yakdillik bilan chiqargan xulosalarini YUNESKO ham tasdiqlagan. Shunday qilib, zardushtiylik Markaziy Osiyoda shakllanib, keyinchalik Eron va boshqa o'lkalarga tarqalgan.[3:24][4:683][5:18] Zardusht so'zining lug'aviy ma'nosi turlicha izohlanib kelinadi. Bir ta'birga ko'ra "Sariq, tilla rang sohibi (egasi)"; boshqa bir ta'birga ko'ra "Zarrin yorug'lik egasi"; yana bir ta'bir bo'yicha "Oq tuyalik, tuya boquvchi" demakdir. Ba'zi tarixiy manbalarda bu nomning ma'nosi – "yulduz o'g'loni" deb ta'riflangan. "Avesto" uzoq davrlar mobaynida –

miloddan oldingi 3 ming yillikning oxirlaridan boshlab og'zaki tarzda shakllanib, avloddan-avlodga o'tib kelgan. "Avesto" ni Zardusht diniy asar sifatida bir tizimga solgan, hamda o'zi ham uning "Gohlar" (Gotlar) qismini yozib kitobat qilgan. "Avesto" so'zining lug'aviy ma'nosi "o'rnatilgan, qat'iy qilib tayin etilgan qonun-qoidalar" demakdir.

"Avesto" — "Yasna", "Gohlar", "Visparad", "Yashtlar", "Vandidad" va "Kichik Avesto" dan iborat. — "Yasna" — toat, ta'zim, salovatga loyiq, munosib ma'nolarini ifodalaydi. U "Avesto" ning eng qadimgi muhim qismi bo'lib, 72 bobdan iborat bo'lgan hamdu sano, qurbonlik duolaridan tashkil topgan. — "Gohlar" — ma'nosi qo'shiq-gimn demakdir. U ham "Yasna" ning 72 bobi sirasiga kiradi. "Gohlar" Zardusht tomonidan ijod qilingan beshlik qo'shiqgimnlaridir. Ularda yakka xudolik ta'limoti, ikki qarama-qarshi kuchlar – ziyo va zulmat, ezgulik va yovuzlik, hayot va o'lim o'rtasidagi kurashda har bir inson yakayu-yagona oliy Tangri – Axura Mazda amriga ko'ra ezgulik kuchlari tomonida bo'lishi kuylanadi.

Zardushtiylikda naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e'tibor berilgan, qattiq nazorat qilingan, qarindosh-urug', aka-uka, opa-singilning quda-anda bo'lishi qoralangan. "Avesto" da Navro'z – Yangi kun, Yangi yilning boshlanishi, tabiatning uyg'onishi, hayotning boshlanishi, deb tasvirlanadi. Ma'lumotlarga qaraganda bugungi kunda Zardushtiylik dini va ta'limotiga e'tiqod qiluvchilar asosan Hindiston va Eronda mavjud. Chunonchi Eronning Yazd va Gilon viloyatlarida ularning soni 100 ming, Hindistonning Maxarashtra va Gujarot shtatlarida 115 mingdan ziyodni tashkil etadi.[4:683] Markaziy Osiyo xalqlarining shakllanishi tarixining murakkab va o'ziga xos tomonlari mavjuddir. Bu vaziyat ularning diniy turmushlarida ham o'z aksini topdi. Islomning vujudga kelishini tahlil etishning o'sha tarixiy davr xususiyatlari, arab qabilalari o'rtasida hukmron bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning diniy-g'oyaviy hayoti bilan bog'liqdir.

Islomda payg'ambar sifatida e'tirof etilgan, qurayish qabilasining hoshimiylar honadonidan bo'lgan Muhammad ibn Abdulloh (570 – 632) islom ta'limoti shakllanishida muhim rol o'ynagan.[6:69] Jahonda qariyb 1,2 mlrd. kishi Islomga e'tiqod qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko'prog'i Osiyoda yashaydi va bu qit'a aholisining 20% idan ortiqrog'ini tashkil etadi. Qariyb 30% musulmonlar Afrikaga to'g'ri keladi (qit'a aholisining deyarli yarmi). Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo'lgan 120 dan ortiq, mamlakatdan 40 dan ziyodi musulmonlar aholining ko'pchiligini tashkil qiladi — Shimoliy Afrika, G'arbiy Osiyoning barcha mamlakatlarida (Kipr, Livan, Isroil mustasno), Senegal, Gambia, Niger, Somali, Afg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya va boshqa ba'zi mamlakatlarda aholining 80% dan ortig'i musulmonlardir; bir qancha mamlakatlarda musulmonlar aholining yarmidan 80% igacha tashkil qiladi (Gvineya, Mali, Livan, Chad, Sudan). Malayziya va Nigeriyada kariyb yarmi, ba'zi bir mamlakatlar (Gvineya-Bisau, Kamerun, Burkina-Faso, Serra-Leone) da musulmonlar ozchilikni tashkil qilsa ham, ta'sir doirasi kuchli. Musulmonlarning soni jihatdan eng yirik davlatlar — Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladesh; musulmonlarning anchasi Markaziy Osiyo mamlakatlari, Xitoy, Tailand, Efiopiya, Tanzaniya, Kiprda, Yevropaning ayrim mamlakatlari (Yugoslaviya, Albaniya, Buyuk Britaniya, GFR, Fransiya va b.), Shimoliy va Janubiy Amerika qit'asi mamlakatlari (AQSh, Kanada, Argentina, Braziliya, Gayana, Surinam, Trinidad va Tobago)da, Avstraliyada, Fiji orollarida yashaydi.[7:236]

Islomning muqaddas kitobi Qur'oni Karimdir. Musulmonchilikda bu kitobning butun mazmuni Allohning vahiy qilingan so'zi deb tushuniladi. Islomning aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlari, cheklash va taqiqlari Qur'on bilan birga uning tafsirlarida, hadis

to'plamlari va shariat qo'llanmalarida, shuningdek, VIII – XII asrlarda vujudga kelgan ilohiyot adabiyotlarida o'z ifodasini topgan.

Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bevosita arab istilolari va arablar ko'p asrlik hukmronligining o'rnatilishi bilan bog'liq. O'rta Osiyoga arab yurishlari qariyb 643 – 644 yil atroflarida boshlangan bo'lsa ham, o'lkani uzil-kesil bosib olishga uzoq davrli kurashdan so'ng faqat arab qo'mondoni Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (704- 715) erishdi. Mintaqada yangi siyosiy kuchning paydo bo'lishi oqibatida O'rta Osiyo ikki qismga bo'lindi: 1) Movarounnahr ("Ikki daryo oralig'i") va 2) Arodi at-turk ("Turklar yerlari", ya'ni arablarga bo'ysunmagan hukmdorlar yerlari). Mazkur ikki hududda islomlashuv jarayonlari turli xilda kecha boshladi. Arablar Markaziy Osiyo hududiga 674 yildan boshlab bostirib kira boshladilar. Bosqinchi qo'shinga xalifalikning Xurosondagi noibi Ubaydulloh ibn Ziyod boshchilik qildi. O'shanda ular Poykand va Buxoro shaharlari hamda ularning tevaragidagi tumanlarini talon-taroj qildilar va katta o'lpon 1 mln. Dirham pul va 4000 asir va boshqalar bilan qaytdilar. Bundan keyin ham arablar Markaziy Osiyo ustiga bir necha marta talonchilik yurishlari uyushtirdilar.

705 yildana boshlab arab qo'shinlarining Markaziy Osiyoga isilochilik yurishlari kuchaydi. Arab istilosi Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotiga katta zarar yetkazdi: ko'plab katta va boy shaharlarning kulini ko'kka sovurildi, ming-minglab kishilarning yostig'i quridi, Marv, Buxoro Samarqanda va Xorazm kutubxonalarida saqlanayotgan million noyob asarlar yo'q qilindi.[10:64]

VII asr oxirlarida va VIII asr boshlaridan boshlab arablar O'rta Osiyo yerlarini istilo qilishga kirishganlar va VIII asrning birinchi yarmida uni o'zlariga to'la bo'ysundirishga muvaffaq bo'lganlar. Tarixchi olim B.Ahmedovning ta'kidlashicha, arablar bu yerlarga gul ko'tarib emas, balki qilich yalang'ochlab va nayza ko'tarib kelganlar. Buni arab tarixchilari Tabariy, Ya'qubiy, Balazuriy-Muqaddasiylar ham e'tirof etganlar.

Tarixiy haqiqat shundan iboratki, arablar tashviqot, targ'ibotdan tashqari bu yerlarni talash, xalqni asoratga solish maqsadlari bo'lgani inkor etilmaydi. Shu niyatda ular mahalliy aholi tilini, yozuvini va dinini yo'qotish uchun ham zo'rlik, ham makkorlik siyosatini izchil amalga oshirganlar. O'rta Osiyo xalqlarining mixxatga (runiy yozuvlari) asoslangan harflarida yozilgan kitoblari kuydirib tashlangan, bu harfni biluvchilar qatli-om etilgan. Zardushtiylik dinining bir oqimi bo'lgan mazdaizm (dualizm)ga e'tiqod qiluvchilar quvg'in qilingan, o'ldirilgan yoki ular qochib ketganlar. Arablar zardushtiylik dini bilan tutashib ketgan urf-odatlar, marosimlarni qat'iy taqiqlab qo'yganlar. Hatto juda chuqur tarixiy an'analarga ega bo'lgan Navro'z bayramini taqiqlaganlar, ammo uni xalq xotirasidan chiqarib yuborishga ojizlik sezgan, unga islom ruhini berishga intilganlar.

O'lkada arab istilochilariga qarshi qattiq qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan. Muqanna boshliq qo'zg'olonlarni arablar faqat mahalliy aholining orasini buzish vositasi bilan bostirishga muvaffaq bo'lganlar. Ammo bir yomon ishning yaxshi tomoni ham bo'lar ekan. Arablar O'rta Osiyoda VII-VIII asrda avj olib ketgan va xalqni holdan toydirgan qabilalar o'rtasidagi urushlarga barham berdilar. Natijada arab xalifaligiga qaram bo'lgan yirik davlat vujudga keldi. Bunda Somoniylarning alohida o'rni bor. Ular islomni keng yoyishda katta rol o'ynaganlar. Ayni chog'da dehqonchilik, hunarmandchilikni rivojlantirish uchun ilm-fanga yo'l ochganlar. "Davlati Somoniyon" asarining muallifi N.Ne'matovning yozishicha, o'sha zamonda Movarounnahr va Xurosonda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va chorvachilik yuksak

darajada rivojlangan. Chunonchi, Buxoro viloyatida, Zarafshon vodiysida, Shohrud, Karmish, Shopurkon, Varaxsha kanallarida suv limmo-lim oqib, butun atrofni yashnatib turgan. Samarqand, Sug'd, Afg'oniston, Shimoliy Eron, Xorazm yerlaridan iborat juda katta hududda turkiy qabilalar jamoasining o'zaro birikishidan iborat Qorahoniylar saltanati vujudga kelgan. Bular davrida ilm-ma'rifat, madaniyat ancha rivoj topib, qator yuksak ilmiy, ijtimoiy-falsafiy asarlar asosan turkiy tilda yaratilgan. Bu asarlar sirasiga birinchi navbatda eslatib o'tilgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Baxt-saodatga eltuvchi bilim" asarlari bilan bir qatorda Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul-haqoyiq", Tavsif, Rabg'uziyning "Qissai Rag'buziy" kabi asarlari kiradi.

Tarixchi B.Ahmedov "Ibn Sino davri" asarida ta'kidlab o'tganidek, "Ayniqsa Buxoro, Samarqand, Shosh, Gurganj, Balx, Xirot, Marv va Nishopur kabi shaharlarda hunarmandchilik gullab-yashnagan. O'lkadagi hunarmandchilik sanoati ichki bozorlarda ehtiyojini qondiribgina qolmay, tashqi bozorlar uchun ham mo'l-ko'l mahsulot ishlab chiqarardi.»Bu yerdagi shaharlardan qo'shni mamlakatlarga olib boriladigan mollar turli-tumanligini al-Muqaddasiyning quyidagi so'zlaridan bilish mumkin: "Termizdan-sovun va doka, Buxorodan – mayin gazlamalar, joynamozli gilamchalar, mehmonxonalarga to'shaladigan gilam, sholcha va kigizlar, mis chirog'donlar, qalay idishlari, charm, o'tkir nasha va oltingugurt, Xorazmdan qunduz, qoplon, suvsar, ko'zan, latga mo'ynalari, po'stak, sham, asal, holva va boshqa narsalar chiqarilar edi". Tadqiqotchilar arab madaniyatining ahamiyati haqida so'zlab, quyidagilarni yozganlar: "Abbosiyalar taxtga chiqishlari bilan barcha musulmonlar (o'z sotsial mavqelariga ko'ra) huquqda teng bo'ldilar, butun xalifalikda islomlashtirish va arab tilini yoyish boshlandi, chunki bu tilda Qur'on vahiy bo'lgan va diniy – huquqiy rivoyatlar (sunna) og'izdan og'izga ko'chib yurgan».[11:5]

Shunday qilib, abbosiyalar davri (IX asr) arab madaniyati, jumladan, musulmon madaniyati O'rta Osiyo hududlarida ham tarqala boshlagan davr bo'lib, bu davrda butun boshli bir xalifalik hududidagi xalqlar bir-birlarining urf-odatlarini, madaniyatlarini o'zlashtirib, ma'lum ma'noda turmush tarzlarini ham tubdan ijobiy o'zgartirib yuborganlar. Madaniy hayotni islom ma'naviyati bilan to'ldirilganligi islomga zid madaniyat turlarini yo'qotishga ham olib kelgan.

Buxoro va Samarqandda zardushtiylikning ibodatxonalari, ularda esa o'z o'txonalari mavjud bo'lgan. Manbalarda nestorian xristianlarning va butlarining ko'plab aniq tafsilotlari bayon etilgan. Masalan, Samarqanddagi bosh butxonani arablar yoqib tashlaganlarida yog'ochdan ishlangan butlardan 50 ming misqol tilla olingan. Bu yerda eritilgan bir butdan 24 ming misqol kumush olingan. Samarqand va Buxorodagi ibodatxonalar juda boy, ularda tilla va kumushlardan ishlangan jihozlar, qimmatbaho toshlar mavjud bo'lgan, masalan, marvaridlarining kattaligi hatto tovuq tuxumicha bo'lgan.[12:362]

Islomni O'rta Osiyo xalqlari hayotiga kiritishda turli usul va yo'llardan foydalanilgan bo'lsa-da mahalliy xalqlar tomonidan unga ijobiy munosabat kun sayin orta borgan. Islomiy qadriyatlarining xalqlarda tarixan shakllangan urf-odatlari va an'analarning ko'p jihatlari bilan uyg'unlashishi yuzaga kelgan. Natijada milliy va islomiy qadriyatlar xalqlar qalbidan tobora chuqur o'rin olib, ularning turmush tarzi va ma'naviyatini boyita borgan.

Hozirgi kunda madaniyatimiz rivojlanishida islom dinining o'rni. Markaziy Osiyo hududiga keng tarqala boshlagan islom dini, uning ta'limotlari asosida dunyoga kelgan ma'naviy madaniyat hozirgi kunga qadar ardoqli bo'lib qolmoqda. Albatta, musulmon

madaniyati deb nom olgan ulkan ma'naviy qadriyatlarni faqat islom dinidan iborat qilib qo'yish to'g'ri bo'lmaydi. Lekin shunga qaramay, hayot qamrovi jihatlariga ko'ra, madaniyatlar yaqinlashuvi ijtimoiy tafakkurning siyosiy va ma'naviy sohalarning barcha tomonlarini yanada kengaytirgan. Ana shu madaniyatlar mushtarakligida yangi "arab tili madaniyati" degan ma'naviy boylik sivilizatsiya vujudga kelgan, madaniyatlar yaqinlashuvi hozirgi kunda urf-odat, an'ana, turmush tarzi yaqinligiga olib keldi. Aksariyat kishilarda islomga e'tiqod qilish, hatto milliy birlikda ham alohida mazmun kasb etmoqdaki, buni biz kundalik turmushda kuzatib turibmiz.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. <https://azkurs.org/3-mavzu-markaziy-osiyo-dinlari-reja-markaziy-osiyo-dinlari-va.html#:~:text=Dinlar%20unga%20e%E2%80%99tiqod,va%20h.k>.
2. <https://zenodo.org/records/5913357>
3. Fozila Sulaymonova. Sharq va G'arb. – Toshkent: «O'zbekiston», 1997. – B.24.
4. O'zbek milliy ensiklopediyasi. – J:3. – Toshkent,2002. 683-bet.
5. A.Mansur. Islom ensiklopediya. – Toshkent «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat nashriyoti, 2004.
6. Dinshunoslik asoslari. – Toshkent: "O'zbekiston", 1995. – B. 69.
7. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat,2010. – B. 236.
8. Markaziy Osiyo dinlari tarixi / Mas'ul muharrir - Sh.Yovqochev. – T.: Davlat sharqshunoslik instituti, 2006. – 670b.
9. Avesto kitobi - tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. – Toshkent, 2000.
10. Ahmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. – B. 64.
11. Большаков О.Г. Очерки истории арабской культуры. V-XV вв. Введение. – М.: 1982, – С. 5.
12. Гафуров Б. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая культура. – Душанбе, 1989. – С. 362.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/3(4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).